

LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINING TIBBIYOTDAGI ROLI VA AHAMIYATI TO'G'RSIDA MULOHAZALAR

Namozov Muhammadamir

Samarqand Zarmed Universiteti Davolash ishi yo'nalishi 1-kurs talabasi

Sharipov Bobur Salimovich

Ilmiy rahbar:

Samarqand Zarmed Universiteti Tillar kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14858371>

Annotatsiya. Ushbu tezisda lotin tili va tibbiy terminologiya fanining tibbiyotdagi roli va ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan. Unda lotin tilining kelib chiqish tarixi, tibbiyotda lotincha terminlarning ishlatilishi, o'rni va o'ziga xos xususiyatlari borasida tahlillar asosida ma'lumotlar berilgan.

Kirish so'zlar: tibbiy termin, anatomiya, farmokologiya, patologiya, atama-elementlar.

Abstract. This thesis discusses the role and significance of the Latin language and the science of medical terminology in medicine. It provides information based on the analysis of the history of the origin of the Latin language, the use of Latin terms in medicine, their role and specific features.

Key words: medical term, anatomy, pharmacology, pathology, term-elements.

Kirish. Lotin tilini bilish dunyoning turli mamlakatlaridagi shifokorlarga bir-birlarini osongina tushunish imkonini beradi. Tibbiyotda lotin tilini qo'llashning uzoq an'analari butun dunyo shifokorlari va tibbiy ta'limni standartlashtirish uchun birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Tibbiyot sohasida aniq va tushunarli muloqotning ahamiyati katta. Qadimdan *In via est in medicina via sine lingua latina* – lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q jumlasida bugunda ham o'z tasdig'ini topmoqda deb aytishimiz mumkin. Bu borada tibbiy terminologiya va lotin tili alohida o'rin tutadi.

Lotin tili qadimdan ilm-fan, xususan, tibbiyotda keng qo'llanilgan va hali ham bu sohada asosiy til sifatida xizmat qilib kelmoqda. Ushbu tezisda lotin tilining tibbiyotdagi roli, uning tibbiy terminologiya bilan bog'liqligi va ahamiyati haqida so'z yuritimiz. Yunonistonning Rim tomonidan zabt etilishi bilan (miloddan avvalgi 2-asr) lotin va yunon tillari va madaniyatlarining o'zaro boyishi sodir bo'ldi. Lotin tili juda ko'p yunoncha so'zlarni, shuningdek, asoschisi shifokor Gippokrat bo'lgan yunon tibbiy terminologiyasini o'zlashtirdi.

Asosiy qism. Lotin tili – bu qadimgi Rim imperiyasining rasmiy tili bo'lib, keyinchalik Yevropaning ko'plab mamlakatlarida ilmiy va huquqiy faoliyatda asosiy tilga aylangan. Tibbiyotda lotin tilining ishlatilishi Rim davriga borib taqaladi. Xususan, qadimgi tibbiyotshunoslar, shifokorlar va olimlar o'z asarlarini lotin tilida yozganlar. O'rta asrlarda esa, Lotin tili butun Yevropada ilmiy hamda diniy matnlarning asosiy tili sifatida qo'llanildi. Shu sababli, zamonaviy tibbiy terminologiyaning ko'pchiligi aynan lotin tilidan kelib chiqqan.

Tibbiy terminologiya – bu tibbiyotda ishlatiladigan maxsus atamalar va iboralar tizimidir. Tibbiy terminlarning asosiy vazifasi aniq va tushunarli muloqot o'rnatishdan iborat bo'lib, bu orqali shifokorlar, ilmiy tadqiqotchilar va mutaxassislar bir-biri bilan muammolarni, kasalliklarni va davolash usullarini muvofiqlashtirish qiladilar. Tibbiy terminologiya har doim yangilanib boradi, ammo ko'plab tibbiy atamalar lotin tilidan kelib chiqqan va ularning asosiy qismlari bugungi kunda ham o'zgarmagan holda saqlanib qolgan.

Lotin tili tibbiyotda aniq, qisqa va tushunarli ifodalash imkonini beradi. Bu tilning grammatika va sintaksisi oddiy va murakkab atamalarni aniqlik bilan ifodalashga imkon beradi. Shifokorlar va mutaxassislar bir-birlari bilan bevosita muloqot qilishda bir xil tilni ishlatishadi, bu esa muloqotning noaniqlik va tushunmovchiliklardan holi bo'lishini ta'minlaydi. Lotin tilida ishlatiladigan so'zlar ko'plab kasalliklarni, simptomlarni, dori vositalarini, anatomik tuzilmalarni, jarrohlik operatsiyalarini va boshqa ko'plab tibbiy holatlarni aniq tavsiflashga yordam beradi.

Tibbiy ta'limda lotin tili asosiy fanlardan biri sifatida o'qitiladi. Shifokorlar, farmatsevtlar, stomatologlar, biomeditsina mutaxassislari va boshqa tibbiyot sohasidagi mutaxassislar uchun lotin tilini bilish zarur. Tibbiy atamalarni tushunish, ularning tarjimasini va o'zaro bog'lanishini bilish mutaxassislarning o'z sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhimdir. Shuningdek, lotin tilining o'rgatilishi tibbiy sohada tarixiy va madaniy merosni saqlashga yordam beradi.

Bugungi kunda, tibbiyotda lotin tilining ahamiyati kamaygan deb hisoblash mumkin, chunki ko'plab tibbiy atamalar xalqaro so'zlashuvda ingliz tilida qo'llanilmoqda, ammo o'sha inglizcha tibbiy atamalar ham dastlab lotincha yoki yunoncha terminlar sifatida shakllangan. Biroq, lotin tilining o'rni hali ham katta. Zamonaviy tibbiyotda ham ko'plab tibbiy atamalar lotin tiliga asoslanadi. Shuningdek, lotin tili tibbiyotning boshqa yo'nalishlarida, masalan, farmakologiya, anatomiyada va patologiyada asosiy terminologiya sifatida qolmoqda. Boshqa tillarda ham ko'plab ilmiy so'zlar lotin tilidan olingan va bu til ilmiy til sifatida saqlanib qoladi.

Lotin tilidagi tibbiy terminlardan hozirda butun dunyo shifokorlari kundalik va kasbiy hayotlarida faol qo'llashadi. Turli tillarda gapiradigan shifokorlar doimo bir-birini tushunishlari uchun lotin tili zarurdir. Shunday qilib, lotincha tibbiy terminologiya zamonaviy tibbiyot fanining atamalarini o'z ichiga oladi va tibbiy lug'at nafaqat tibbiy sohada, balki tilning boshqa sohalarida, xususan, ijtimoiy va ilmiy faoliyatda ishlaydigan nomlarni birlashtiradigan kengroq tushunchadir.

Xulosa. Lotin tili va tibbiy terminologiya tibbiyot sohasining ajralmas qismi bo'lib, ularning tibbiyotdagi o'rni va ahamiyati juda katta. Ular aniq va tushunarli muloqotni ta'minlaydi, tibbiy ta'limning sifatini oshiradi va tibbiy ilm-fanning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shifokorlar va boshqa mutaxassislar uchun lotin tilini bilish zaruriyatga aylangan, chunki u tibbiy atamalarni o'rganish va ulardan foydalanishni osonlashtiradi. Shu sababli, lotin tilining tibbiyotda roli va ahamiyati doimo yuqori bo'lib qoladi.

References:

1. Mukhamadiyeva, M., & Sharipov, B. (2022). LATIN AS THE MAIN LANGUAGE OF MEDICINE. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(7), 337-339.
2. Salimovich, S. B. (2023). TRANSLATION OF CLINICAL TERMS IN LATIN AND BASIC MEDICAL TERMINOLOGY CLASSES. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(3), 100-103.
3. Sharipov, B. (2023). SOME CONSIDERATIONS ON THE FORMATION OF CLINICAL TERMS IN LATIN. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 477-479.
4. Sharipov, B. (2022). RETSIPROKLIK XUSUSIDA MULOHAZALAR. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(19), 63-66.

5. Salimovich, S. B. (2022). RECIPROCAL SYMMETRY AND ITS GRAMMATICAL INDICATIONS. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(12), 129-131.
6. Salimovich, S. B. (2022). Studies of Reciprocity in Linguistics. *Eurasian Scientific Herald*, 8, 221-224.
7. Isroilova, M., & Sharipov, B. (2023). SOME OBSERVATIONS ON LATIN PRONUNCIATION AND SPELLING. *Science and innovation in the education system*, 2(7), 127-129.
8. Шарипов, Б. С. (2022). TIL BIRLIKLARINING NUTQDA FAOLLASHUVI HAQIDA. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(1).
9. Nasimjanovna, K. F., & Salimovich, S. B. (2023). NAMES OF DISEASES AND THEIR USE IN CLINICAL TERMINOLOGY. *Journal of Universal Science Research*, 1(6), 469-474.
10. Salimovich, S. B. (2022, January). FUNCTIONS OF LANGUAGE UNITS. In *Conference Zone* (pp. 62-63).
11. Mardanovich, M. Z., Aliaskarovna, S. U., Kenjaevna, B. M., Genjebaevna, A. P., & Salimovich, S. B. (2021). Some Considerations about Legal Solutions and Practices of Certain Problems Writing Recipes. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 5341-5352.
12. Mwakalinga, S. E., & Leandry, L. (2021). Application of assessment and evaluation in learning: Theories and realities. *International Journal of Education and Research*, 9(10), 65-72.
13. Махмудова, С. А. (2022). Репрезентация концептуальной оппозиции "свой/чужой" в романе Дж. Олдриджа "Горы и оружие". *Вестник Челябинского государственного университета*, (9 (467)), 153-160.
14. Makhmudova, S. A. (2023). REPRESENTATION OF THE CHARACTER CONCEPT "ENGLISHMAN" IN THE NOVEL BY J. ALDRIDGE "DIPLOMAT". *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 16, 99-105.
15. Махмудова, С. А. (2022). ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ ОППОЗИЦИИ «СВОЙ/ЧУЖОЙ» В ТРИАДУ «ДРУГОЙ-СВОЙ-ДРУГ» В РОМАНЕ ДЖ. ОЛДРИДЖА «I DON'T WANT HIM TO DIE» («НЕ ХОЧУ, ЧТОБЫ ОН УМИРАЛ»). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(5).
16. Baitakova, M. K., & Kanlybaeva, A. U. (2016). Medical terms as means of medical professionals communication. *Россия и Европа: связь культуры и экономики*, 196.
17. Makhmudova, S., & Sharifova, Z. (2024, May). THE INTRODUCTION OF AN INTERMEDIATE CHARACTER INTO THE BINARY OPPOSITION "FRIEND OR FOE" AS A NECESSARY ELEMENT OF A LITERARY TEXT. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 708-710).
18. Махмудова, С. А. (2023). Репрезентация персонажного концепта «англичанин» в романе Дж. Олдриджа «Дипломат». *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 420-427.
19. Makhmudova, S. A. (2023). PECULIARITIES OF REPRESENTATION OF BINARY OPPOSITION "FRIEND/FOE" IN DIFFERENT SPACES OF J. ALDRIDGE'S NOVEL "DIPLOMAT". *Open Access Repository*, 9(7), 138-144.
20. Махмудова, С. А. (2023). ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ БИНАРНОЙ ОППОЗИЦИИ «СВОЙ/ЧУЖОЙ» В РАЗНЫХ ПРОСТРАНСТВАХ РОМАНА ДЖ. ОЛДРИДЖА

- «ДИПЛОМАТ». *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 17, 125-132.
21. Махмудова, С. А. (2023, June). РОЛЬ БИНАРНОЙ ОППОЗИЦИИ «СВОЙ-ЧУЖОЙ» В РОМАНЕ ДЖ. ОЛДРИДЖА «ГОРЫ И ОРУЖИЕ». In *E Conference Zone* (pp. 74-77).
22. Махмудова, С. А. (2023, June). ТРИАДА «ДРУГОЙ-СВОЙ-ДРУГ» В «ВОСТОЧНЫХ» РОМАНАХ ДЖ. ОЛДРИДЖА. In *E Conference Zone* (pp. 69-73).
23. Makhmudova, S. A. (2022). The Crisis Of Heroes' Self-Identification In "Oriental" Novels By J. Aldridge. *Journal of Positive School Psychology*, 6(7), 2781-2786.
24. Махмудова, С. А. (2022). БЛИЖНИЙ И СРЕДНИЙ ВОСТОК В РОМАНАХ И ПУБЛИЦИСТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ДЖЕЙМСА ОЛДРИДЖА. In *Конференция состоялась* (Vol. 5, p. 412).
25. Махмудова, С. А. (2024). КРАТКИЙ ОБЗОР АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ XX ВЕКА. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(8), 171-175.
26. Makhmudova, S. A. (2023). TRIAD" OTHER-OWN-FRIEND" IN" ORIENTAL" NOVELS OF J. OLDRIDGE. *Conferencea*, 87-89.